

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	335
<b>M.A.Kuchkarova</b>	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения .....	338
<b>Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova</b>	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari .....	342
<b>K.Sh.Nishonova</b>	
Boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lim va uning turlari.....	347
<b>A.R.Dilbarjonov</b>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari .....	350
<b>I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova</b>	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasi .....	354
<b>M.M.Abdumannopov</b>	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari .....	358
<b>T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova</b>	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari ....	362
<b>N.A.Qodirova</b>	
Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida).....	366
<b>Z.N.Ortiqova</b>	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari .....	370
<b>M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva</b>	
Ta'limda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rmi .....	377
<b>I.Kirgizov</b>	
"Ey sabo" – komil insonga aksiologik yondashuv.....	381
<b>A.T.Karimov</b>	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari .....	386
<b>A.M.Nurmuxammadjonov</b>	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati.....	390
<b>M.M.Najmetdinova</b>	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari .....	396
<b>M.Kurbanova</b>	
Dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari.....	400
<b>X.M.Shermatova</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati .....	403
<b>T.N.Shokirov</b>	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi .....	407
<b>B.M.Qurbonova</b>	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar .....	410
<b>L.Sh.Shukurova</b>	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlar va uning ilmiy tahlili.....	415
<b>A.A.A'zamjonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rmi .....	419
<b>A.A.Abdisattorov</b>	
Musiqqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari .....	422
<b>I.D.Rustamov</b>	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rmi (Doira cholg'usi misolida).....	428
<b>A.A.Ergashev</b>	
Vokal-xor ta'limida finale-2003 dasturining qo'llanishi.....	432
<b>A.A.Mamurov</b>	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari .....	438



UO'K: 37.013:130.2(575.1)

**“EY SABO” – KOMIL INSONGA AKSIOLOGIK YONDASHUV****“ЭЙ САБО” – АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ИДЕАЛЬНОМУ ЧЕЛВЕКУ****“EY SABO” - AXIOLOGICAL APPROACH TO THE PERFECT MAN****Kirgizov Imyaminjon**

Farg'ona davlat universiteti professori v.b

**Annotatsiya**

Maqolada mumtoz musiqiy merosimizning ilmiy-nazariy asoslari matn va ohang birligida o'rganiladi. «Ey sabo» – komil insonga muhabbat talqini ma'nosida taraluvchi aytim yo'li orqali Alisher Navoiyning she'riyat olamiga sayohat qilar ekanmiz, har bir misrada ilohiy ma'no va ohang lazzatini his etamiz va musiqiy merosimizning o'tmish ijodkorlari naqadar ma'nan nozikta'b hamda yuksak badiiy salohiyatga ega ekanliklariga yana bir bor iqrор bo'lamiz.

**Аннотация**

В статье рассматриваются научно-теоретические основы нашего классического музыкального наследия в единстве текста и мелодии. Путешествуя в мир поэзии Алишера Навои путем «Эй сабо» - интерпретации любви к совершенному человеку, мы чувствуем божественный смысл и аромат мелодии в каждом куплете, а также то, насколько многозначительны были прошлые создатели нашего мюзикла. наследия. Мы еще раз признаем, что они обладают тонким вкусом и высоким художественным потенциалом.

**Abstract**

The article examines the scientific and theoretical foundations of our classical musical heritage in the unity of text and melody. As we travel to the world of Alisher Navoi's poetry through the path of "Ey sabo" - the interpretation of love for a perfect person, we feel the divine meaning and flavor of melody in every verse, and how meaningful the past creators of our musical heritage are. We once again admit that they have a fine taste and high artistic potential.

**Kalit so'zlar:** ma'rifatparvar, muhabbat talqini, subhi, cho'qi, musiqiy meros

**Ключевые слова:** просветление, интерпретация любви, рассвет, кульминация, музыкальное наследие.

**Key words:** enlightenment, interpretation of love, dawn, climax, musical heritage

**KIRISH**

Ma'lumki, mumtoz musiqiy merosimizning ilmiy-nazariy asoslari matn va ohang birligida o'rganiladi. «Ey sabo» – komil insonga muhabbat talqini ma'nosida taraluvchi aytim yo'li orqali Alisher Navoiyning she'riyat olamiga sayohat qilar ekanmiz, har bir misrada ilohiy ma'no va ohang lazzatini his etamiz va musiqiy merosimizning o'tmish ijodkorlari naqadar ma'nan nozikta'b hamda yuksak badiiy salohiyatga ega ekanliklariga yana bir bor iqrор bo'lamiz.

Gap shundaki, «Shashmaqom», «O'zbek xalq musiqasi» nomi bilan nashr etilgan manbalar tarkibidan o'rin olgan aytim asarlarining aksariyati Alisher Navoiy g'azali asosida ijod qilingandir. Zero, mahoratli hofizlar tomonidan sevib ijro etiladigan va tinglovchi qalbini junbushga keltiruvchi ashulalar mag'zi ilohiy muhabbat bilan yo'g'rilgandir.

Mazkur «Ey sabo» – komil insonga muhabbat talqini nomli maqolada ana shu ilohiy muhabbatni tarannum etuvchi g'azal va ohang uyg'unligining samarasi o'laroq yuksak imon-e'tiqod masalasi bayon etiladi.

G'azal – tabiatan latif va nozik ma'noli janr bo'lganligi sababli uni ijro etgan O'zbekiston xalq hofizi Ma'murjon Uzoqov g'azaldagi mayinlik hamda nafis ohangdorlikni ta'min etar ekan, bu jihat kuylovchi va tinglovchini bilishga, badiiy didini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bilmak Navoiyni bu zo'r ma'rifat nishoni,

Bilmak Navoiyni bu o'z naf'i yo'q ziyoni.

Bilmak Navoiyni bu yuksakka eltar oni.

Bilmak Navoiyni bu oinai jahoniy.

**(O'zbekiston xalq shoiri Sobir Abdullo)**

**Ey sabo**

Alisher Navoiy g'azali, Doni Zokirov musiqasi bilan "Ey sabo" ashulasini kuylaganimda tongi pallasini, subhi sodiqni his etamanda har bir so'z, misra hamda baytdagi oshiqona holatga tushib qolganimni sezaman-degan edi ustoz Ma'murjon Uzoqov.

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg'a ayt,

Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt... ya'ani, "ey **tong shabodasi** mening holimni sarvi xiromonimga (sarvi xiromon- "Tavrot"ga ko'ra abadiylik xususiyatiga ega daraxt) ayt, mening ayriliq dardlariga chiday olmay qay darajada yig'layotganimni gulbargi xandonimga (lablari tabassum qilib turgan yorimga) yetkaz.

**Sabo – tasavvufda Alloh taoloning rahmoniy nafasiga nisboat berilib, xayrga bois bo'lishi aytiladi.** U oshiqning ohu nolalarini Allohga, o'z navbatida, Allohning xabarini oshiqqa yetkazadi. Tasavvuf ahli tong chog'ida chekkan oh Alloh taologa yetib boradi, deb hisoblaydilar. Shayx Abu Bakr Kattoniy: "Alloh taoloning bir yeli bor – tong chog'ida esgay. Ul yel ohu nolishlarini eshitgay, uni Arshga olib chiqqay, undan Hazrati Parvardigorga yetkazgay".

**Sarv–tik o'sadigan, ignabargli, domo yashil rangdagi daraxt.** Yunonlarda – ta'ziya, ayriliq; "Tavrot"da – abadiylik, zardushtiylikda – jannatdan keltirilgan daraxt; arablarda – shajarat-ul hayot (tiriklik daraxti).

**Gulbargi xandon – kulib turuvchi mahbub, go'zal yor, dilbar.**

Buki aning ahdu paymonida men o'lsam dag'i

Yaxshi fursat topsang, ul bad'ahdu paymonimg'a ayt.

Men uning ahdu paymonida o'lsam, ya'ni bergan (qat'iy qaror qilgan) va'dalarimga sodiq qolsam, sen (sabo) yaxshi bir fursat topsang, ul bad'ahdu paymonim (oshiqlariga jabr qiluvchi)ga ayt.

Ahdu paymon – qat'iy qaror.

Bad'ahdu paymon – yomon qaror qiluvchi.

Buki aning zulfi zunnorida dinim hosili

Kufr ila bo'lmish mubaddal nomusulmonimg'a ayt.

Uning zulfi zunnorida mening dinim hosili kufr bilan almashg'anini u nomusulmonimga ayt.

**Zulf – Jaloliy tajalliy va tariqat mushkulotlari.**

**Zunnor – haqiqiy Mahbub xizmatiga kamar bog'lash, butkul unga itoat qilish, ya'ni toat-ibodatga astoydil bel bog'lash.**

**Kufr–fano martabasiga yetgan bandaning Haqdan o'zgani tan olmasligidir.**

**Nomusulmon–musulmon emas, g'ayridin, dinsiz; majozan oshiqlarini jabr-sitamlar bilan sinovchi yor.**

Buki qilmishmen jahonu jonni aning sadqasi,

Yuz tuman jonu jahondin yaxshi jononimg'a ayt.

Unga jonu jahonni, ya'ni boru yo'g'imni sadqa qilganman, buni men uchun yuz tuman (million) jonu jahondan ham yaxshi jononimga ayt.

Buki yuz jon sadqasi qilsam pushaymon bo'lmag'um,

Vaslig'a bir va'da qilg'andin pushaymonimg'a ayt.

Yana shuni aytki, men uning uchun yuz jonimni sadqa qilsam ham pushaymon emasman, vasliga bir va'da qilganligidan pushaymonimga ayt.

Buki yuz ming fitna ko'zlug' bo'lsa paydo onsizin,

Qilmag'um nazzora hargiz ko'zi fattonimg'a ayt.

Yana shuki, yuz ming fitna ko'zli paydo bo'lsa ham, u bo'lmasa, hech qachon ularning hech biriga nazar tashlamasligimni ko'zi fattonimga (nigohlari fitna soluvchimga) ayt.

Buki chok aylab yoqa, usruk chiqar el qasdig'a,

Men o'lib el jon topar, bebok nodonimg'a ayt.

Yana shuki, u yoqasini chok (butun go'zalligini namoyon) etib, mast bo'lib elning qasdiga chiqar ekan, bundan men halok bo'lishimni, el esa jon topishini u bebok (qo'rqmas) nodonim (bilmasim yoki bilmaslikka oluvchim)ga ayt.

Dahr bog'i gullari husnin vafosiz erkanin,

Yuzi gul, jismi suman, ko'yi gulistonimg'a ayt.

**Dahr (dunyo) bog'i gullarining husni vafosiz (o'tkinchi) ekanini yuzi gul, jismi suman (xushbo'y hid taratuvchi), ko'yi (ko'chasi) gulistonimga ayt.**

Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo

Bulbuli yo'q erkanin shohi suxandonimg'a ayt.

Ey Navoiy, hech qaysi gulshanning sendek xushnavo bulbuli (yorini madh etishda tengi yo'q oshig'i) yo'q ekanligini u shohi suxandon (har bir aytilayotgan so'zni bilib turuvchi Mahbubim)ga ayt.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Alisher Navoiy hayoti, shaxsiy fazilatlari, faoliyati, ko'pqirrali merosini bilish va anglashga intilish moziydan hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Chunki ulug' o'zbek shoiri, nosiri, mutafakkiri, davlat arbobi, ma'rifatparvari, ijod ahlining murabbiysi, fuqaro g'amxo'ri, mamlakat yaxlitligi, tinchligi va osoyishtaligining tolmas kurashchisi Nizomiddin Amir Alisher Navoiy o'zining ko'pqirrali fa'oliyati bilan mamlakat va xalq taqdiri, ilm-ma'rifat, she'riyat va ma'naviyat tarixida alohida mavqega ega bo'lgan benazir siymodir.

1470- yildan so'ng yozilgan tarixiy («Ravzat us-safo»), ilmiy («Nafahot ul-uns», «Tazkirat ush – shuaro») va badiiy («Haft avrang», «Bahoriston») asarlarda ham Alisher Navoiyning nomi zikr qilindi, uning haqida turli xildagi ma'lumotlar keltirildi. Hatto unga bag'ishlangan maxsus holot-manoqib («Makorim ul –axloq») asari ham yaratilib, unda Alisher Navoiy hayoti, shaxsiyati, faoliyati, merosi, ijodiy aloqalari, turli yozishmalari, ayrim asarlarining yaratilish sabab va tarixi haqida nodir hikoyat va hujjatlar to'plandi. Alisher Navoiy yaratgan asarlarni o'z davrining mashhur xattotlari bo'lmish Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon, Abduljamil kabilar go'zal tarzda ko'chirish bilan ularning avlodlarga yetib kelishiga bois bo'ldilar.

XVI-XIX asrlar orasida Sharqning islomiy mintaqalarida yaratilgan turli xil asarlarda, jumladan Z.M. Boburning «Boburnoma», Vosifyning «Badoe' ul-vaqoe'», Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy», Abulmo'minxonning «Tom ul-tavorix» (XVI asr), Abdulloh Kobuliyning «Tazkirat ut-tavorix», Sayid Sharif Roqim Samarqandiyning «Tarixi kasira» (XVII asr), Volai Dog'istoniyning «Riyoziy ush-shuaro» (XVIII asr)<sup>1</sup> va boshqalarda Alisher Navoiy hayoti, merosi, faoliyatidan bahs yuritildi. Xuddi shu davrlarda uning merosini chuqur o'rganish maqsadida asarlaridagi so'zlarning sharhiga bag'ishlangan lug'atlar yaratildi: «Badoe' ul-lug'ot», «Lug'ati Navoiy», Mirzo Mahdixonning «Mabon ul-lug'ot'i», Muhammad Xoksoning «Muntaxab ul-lug'ot'i» va boshqalar. Shuning bilan birga «Xamsa»ning nasriy bayonlari, jumladan, Umar Boqiyning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun»i (XVIII asr oxiri XIX asr boshi), Mir Mahmud ibni Shoh Yunus va Haybatulloh xo'ja Xislatning «Nasri «Xamsa»i benazir»i (1908 yil); Mullo Siddiq Yorkandiyning «Xamsa»ning uyg'urcha nasriy bayoni (XIX asr) va boshqalar.

Bularning hammasi bu davrda, ya'ni XVI-XIX asrlar davomida Alisher Navoiy merosiga bo'lgan qiziqishning nihoyatda kuchli ekanidan dalolat berib qolmay, balki uning ma'naviy hayotdagi mavqeidan ham guvohlik beradi. Shuning uchun bu davrda Alisher Navoiy asarlarini qo'lyozma tarzda ko'chirib, targ'ib etish qanchalik mashhur bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan so'ng ularni toshbosma tarzida nashr etish ham boshlandi. Masalan, Alisher Navoiy «Xamsa»si birinchi marta 1880 yilda Xivada bosilib chiqqan bo'lsa, keyinchalik «Xamsa», devon va boshqa asarlari ham Toshkent, Buxoro, Samarqand toshbosmalarida qariyb har yili nashr etildi.

XVI-XIX asrlarda G'arbda ham Alisher Navoiy merosiga bo'lgan qiziqish, asarlarini nashr etish, tarjima qilish ko'zga tashlanadi. Jumladan, 1697 yilda fransuz sharqshunosi Derbelo «Sharq kutubxonasi» qomusini nashr ettirdi. Unda Alisher Navoiyga doir mo'jaz ma'lumot ham bor. Bunday ish xususan XIX asrda ancha jonlandi. Bu jihatdan fransuz sharqshunosi M.Belenning maqolalari hamda «Xamsat ul-mutahayyirin», «Mahbub-ul-qulub»dan parchalarning chop etishi (1861,1866 yillar), Katrmerning esa «Tarixi muluki Ajam», «Muhokamat ul-lug'atayn» asarlarining aslyatda nashr etishi (1841), rus sharqshunosi M.Nikitskiyning «Amir Nizomiddin Alisher va uning davlat hamda adabiyot sohasidagi ahamiyati» mavzusida yozilgan magistrlik dissertatsiyaning kitob holda nashr etilishi (1856 yil), Pave de Kurteyl, N.Ilminskiy, I.Berezin va boshqalarning turli xildagi ishlarini eslatish kifoya. To'g'ri, G'arb sharqshunoslari asarlarining hammasi ham bir xil saviyada yozilgan, ularning hammasida ham Alisher Navoiy merosiga yuksak baho berilgan deb bo'lmaydi. Chunki bu sohadagi ish endi boshlanayotgan bo'lib, hali uning hamma asarlari ham to'liq va chuqur ilmiy tarzda o'rganilganicha yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, bu urinishlarning natijasi sifatida M.Belenning «Alisherbek o'z zamonasining mashhur va eng sermahsul ijodkorlaridan biri bo'lgan» tarzida mulohaza yuritishi G'arb sharqshunoslarining dastlabki ijobiy xulosalari bo'lganidan dalolat beradi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

XX asrdagi navoiyshunoslik o'z ko'lamining kengligi va bosib o'tgan yo'lining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Bu o'ziga xoslik shundan iboratki, XX asrning 20-80 yillarida O'zbekistonda hamda MDH mamlakatlarida Alisher Navoiy hayoti va merosini o'rganishda sho'rolar siyosati o'z ta'sirini o'tkazdi. Shunday bo'lsa-da, Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va merosini o'rganish, uning 500 yillik (1948), 525 yillik (1968), 550 yillik (1991) yubileyini o'tkazish; asarlarini (1948 yilda 3 tomlik, 1968 yilda 15 tomlik), ularning ilmiy-tanqidiy matnlarini («Majolis un-nafois», «Lison ut-tayr», «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Mezon ul-avzon») nashr etish, doktorlik (A.Sa'diy, A.Hayitmetov, H.Sulaymon, A.Abdug'afurov, S.Erkinov, N.Mallaev, M.Hakimov va boshqalar), nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish, turli mavzularda monografiya va ilmiy maqolalar to'plamlarini nashr etish davom etdi. Bu davrda A.Fitrat, S.Ayniy, O.Sharafiddinov, V.Mahmudiy, Oybek, Vohid Zohidov, Izzat Sulton, Vohid Abdullaev, Maqsud Shayxzoda, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug'afurov, Sodir Erkinov, Saida Narzullaeva, Suyima G'anieva, Yoqubjon Is'hoqov (O'zbekiston), Ye.E.Bertels, S.N.Ivanov (Rossiya), H.Arasli, J.Nag'ieva (Ozarboyjon), A.Mirzoev, R.Hodizoda (Tojikiston), B.Karriev (Turkmaniston) kabi yetuk navoiyshunoslar faoliyat ko'rsatdilar. Shuning bilan bir qatorda Turkiya (Ogoh Sirri Levend), Eron (Ali Asg'ar Hikmat, Rukniddin Humoyun Farrux), Afg'oniston (Muhammad Ya'qub Juzjoniy) va boshqa mamlakatlarda ham navoiyshunoslar faoliyat ko'rsatib, asarlarini nashr ettirdilar, turli xildagi risolalar, maqolalar to'plamlarini yaratdilar. Bu davrda mamlakatimizda Alisher Navoiy xotirasini abadiylashtirish sohasida ayrim ishlar amalga oshirildi. Uning nomi bilan teatr (Toshkent), universitet, maydon (Samarqand), kutubxona (Toshkent), ko'cha, xo'jaliklar ataldi. Uning haqida roman (Oybek «Navoiy»), drama (Uyg'un, Izzat Sulton «Alisher Navoiy»), qissalar (Mirkarim Osim) yaratildi.

1991 yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, navoiyshunoslikda ham yangi davr boshlandi. Chunki bu davrda milliy istiqlol g'oyasi talablari asosida xalq va mamlakat tarixi, qadriyatlari, boy ilmiy-adabiy merosiga xolisona va ilmiy asosda baho berish, uni ilk va ishonchli manba'larga tayanilgan holda o'rganishga keng yo'l ochildi. Bu esa Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va merosini chuqur o'rganish va yoritishga yangi uflarni ochib berdi. Shuning natijasida Alisher Navoiyning yigirma tomlik mukammal asarlar to'plamining nashri amalga oshirilmoqda, ilgari nashr qilinmagan «Munojot», «Siroj ul muslimin», «Badoe' ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» asarlari bosilib chiqdi. Shu yillarda Alisher Navoiy merosining kam o'rganilgan qirralari (masalan, tasavvuf muammolari) keng tekshirilib, bu sohada anchagina ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar yaratildiki, bunda adabiyotshunoslardan N.Komilov, I.Haqqulov, R.Vohidov, S.Olimov, N.Jumaev, S.G'anieva, M.Muhiddinov, Sh.Sirojiddinov, D.Salohiy va boshqalarning munosib hissalarini bor.Mustaqillik davrida Toshkent va Navoiy shaharlarida Alisher Navoiyga bag'ishlangan muhtasham yodgorliklar maydonga keldi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, komil insonga muhabbat to'g'risidagi fikr-mulohazalari asosida bo'lg'usi musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy mohirligi, pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subektiv jihatdan o'ta ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga ega bo'lishida muhimdir. Chunki, pedagogik mahorat bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim.

Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogga qo'yidagi tavsiylarni havola etamiz:

- Alisher Navoiy merosini o'rganishda bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarida pedagogik mahorat, shaxsi va ish tajribasi yuqoriligi;
- pedagogik mutaxassis sifatidagi mavqeining yuksakligi;
- pedagogik texnika va takti yetarli darajada egallanganligi;
- kasbiy faoliyatining individualligi va jamoaviyligi;
- Alisher Navoiy hayoti va badiiyatiga kreativ yondashuv;
- Alisher Navoiy g'azallarini kuylovchi xonandalar uchun san'at va madaniyat muassalari hamda OTMlarda maxsus seminarlar tashkil etilishi;
- Alisher Navoiyni o'rganamiz, sharxlaymiz va kuylaymiz mazmunidagi seminar-treninglar tashkil etimaqsadga muvofiqdir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 apreldagi «Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'risida»gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi «O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. Xalq so'zi, 2018, 7 sentabr, 1-bet
4. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, O'zdatnashr, 1963, B.13, O'sha manba: B.295-298.
5. Al-Farobiy. Kitob al-musiqa al-kabir. Tasdir d-r Mahmud al Hafniy, Qohira, 1967.
6. Atoulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi' (Aruz vazni va badliiy vositalar haqida). T., 1981.
7. Boboxonov Ari. Buxoro Shashmaqomi. Qo'lyozma (1997) O'DKning ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazida saqlanadi.
8. Navoiy g'azaliyoti talqinlari. To'plam. Tuzuvchi: Nusratulla Jumaxo'ja. T.: "O'ZBEKISTON" NMIU, 2018.